



ISSN (E): 2181-4570

AL-HAKIM AT-TERMIZIY QARASHLARIDAN OLIY TA`LIMDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Erdanova Zamira - Denov tadbirkorlik va pedagogika
instituti 2 - kurs magstranti**

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Al Hakim at-Termiziyning ilmiy faoliyati, ma`naviy merosi va ularning Oliy ta`limdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek AL-Hakim At-Termiziy hayotidagi ilmga bo`lgan e`tiborini hozirgi yoshlarda shakllantirish masalalari ko`rib chiqiladi.*

Kalit so`zlar: *ta`lim, fikh, manaviyat, sharq olimlari.*

Kirish. Sharq madaniyatining namoyandalari yosh avlod tarbiyasiga alohida e`tibor berganlar. Ular komil inson xususida, uning axloqi to`g`risida dunyoga mashhur bo`lgan durdona asarlar yozib qoldirdilar. Ayniqsa, bola dunyoqarashining shakllanishida maktab va muallimning roli haqida o`z fikrlarini bildirishgan. O`rta asr namoyondalaridan Xusayn Voiz Koshifiy bolani bitta muallim emas, balki yoshiga qarab bir necha muallim tarbiyalashi lozim, deb hisoblaydi. Birinchi muallim unga yurish-turish odobi, hayo, rostgo`ylik, kamtarlik sofdillikni o`rgatishi lozim. Ikkinchisi bolani ilm-fanga, uchinchisi mardlik, jasurlik, chavandozlikka o`rgatishi lozim. Yana bir o`rta asr olimi mutafakirlaridan Al-Hakim at-Termiziy o`zining dunyoqarashi va komilikka erishish nazariyalari bilan ajralib turadi.

Al-Hakim at-Termiziy (820-932 yy) “Hakim ul-avliyo” (Valiylar hakimi), “Qudvat ul-avliyo” (Avliyolar mayog`i), “Mashoyihi kibor” (Ulug` shayx), “Olimi usuli ad-din” (Din usuli olimi), “ash-Shayx” (Alloh ilmi bilimdoni), “al-Alloma Sayyid” (Payg`ambar avlodlari), “Muhaddis” (Hadisshunos), “az-Zohid” (Din targ`ibotchisi), “al-Hofiz” (Qur`onxon), “al-Imom” (Hazrati Ali avlodlari), “al-Orif” (Xudoni tanuvchi), “Al-valiy” (Avliyo, Allohning do`sti), “Al-Muazzin” (Azon aytuvchi), “Xoja” (Choryorlar avlodi), “Mufassir” (tafsirchi), “al-Hakim” (Ilmning ichki sirlarini biluvchi), “al-Olim”, “Tabib” kabi unvonlarga ega bo`lgan mutafakkirdir.

Hakim Termiziyning hayot yo`li Abbosiylar xalifaligi va Somoniylar davlatining tashkil topishi bilan bog`liq bo`lgan davr, ya`ni IX asrning birinchi yarmi X asr boshlariga to`g`ri keladi. Al-Hakim at-Termiziy yashagan davrda ruhiy, g`oyaviy kurash juda murakkab edi. U turli diniy firqalar, guruh va oqimlarning o`z soxta da`volari bilan xalqni to`g`ri yo`ldan og`dirishga qilayotgan harakatlari avjiga chiqqan bir davrda yashab, o`zining mustaqil va ilmiy asoslangan fikrlari bilan ularga munosib





raddiyalar berib, odamlarni zalolatga kirib qolishlardan saqlab qolgan. Al-Hakim at-Termiziy tavallud topgan Termiz shahri IX-X asrlarda Amudaryo sohilining yuqori qismida joylashgan, aholisi gavjum¹, savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlar rivojlangan shahar bo`lgan. Termizda o`sha davrda din ahlining jamiyatdagi mavqei va ta`siri juda sezilarli bo`lgan, VIII asrdayoq tasavvuf markazi bo`lgan Balx shahri bilan aloqalari juda yaqin edi.

Hakim at-Termiziy ilm-ma`rifat yuksak qadrlanadigan, ziyoli bir xonadonda 820 (hijriy 205) yilda Termiz shahrida dunyoga kelgan, mana shu ilmiy-ma`naviy muhitda o`sib ulg`aygan. Oxir oqibatda mazkur omillar ta`sirida uning ma`naviy dunyosi va ilmiy tafakkuri shakllanib, kamolga yetgan. Ayni vaqtda shuni alohida ta`kidlash kerakki, al-Hakim at-Termiziyning ilmiy kamolotida uning otasi Ali ibn al-Hasanning xizmatlari benihoya katta. Chunonchi, u o`z farzandi uchun nafaqat mehribon va g`amxo`r ota, balki unga nisbatan talabchan murabbiy va ma`rifatli ustoz maqomida ham bo`lgan. Bu xususda al-Hakim at-Termiziy o`z kitoblaridan birida shunday hikoya qiladi:


- Oллоh taolo meni ustozim - validimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa`y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg`ulot bo`lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o`yin-kulgi va vaqti xushlik bilan band bo`lardilar. Validimning ijti hodlari tufaylik men shu yoshimda “Ilm al-osor” (Qadimiy rivoyatlar (hadislar) haqidagi ilm) va “Ilm ar-ray” (“E`tiqod haqidagi ilm”) bilimlarini to`liq egallab olgan edim²...

Otasi vafotidan keyin al-Hakim at-Termiziy o`z shahridagi yetuk olimlardan asosan tafsir, hadis va fiqh ilmlaridan saboq oladi. Uning termizlik muhaddislar Abu Muhammad Solih ibn Muhammad ibn Nasr at-Termiziy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziydan hadis ilmini o`rganganligi haqida manba`larda aniq ma`lumotlar keltirilgan³. Al-Hakim at-Termiziy ko`plab olim ulomalardan bilim olgan va muallim va shogird-o`quvchi o`rtasidagi munosabatning nimaga asoslanishi va qanday

¹ Shamsaddin Abu Abdullah Mohammad ibn Ahmad al-Moqaddasi. Descriptio Imperii moslemici. / Ed. M. J. de Goeje. Bibliotheca geographorum arabicorum. Pars 3. - Lugduni Batavorum, 1967. - P.291. ⁶ Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в Исламе. – Москва: Наука, 1989. – С.23.

² Hokim, at-Termiziy, Abu Abulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan. Xatm alavliya/H.Tirmiziy. – Bayrut, b.g., 446 b.

³ Ash-Shayx Komil Muhammad Muhammad Avayda. Al-Hakim at-Termiziy, 5-6-betlar.





bo`lishligi haqida xam fikr yuritadi va yetuk inson tarbiyalab yetishtirishning eng natijali yo`lini qidiradi.

Hozirda oliy ta`limda sharq an`anlari asosida zamonoviy texnologiyalar bilan talaba-yoshlarga bilim berish ularning tafakkurini, ilmiy salohiyatini rivoji uchun ilmiy amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan davlatimiz rahbarini tashabbusi bilan sharq mutafakkirlarini ijodi o`rganish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilyotgan bo`lb, bundan “sharq mutafakkirlarining merosi” degan fan va darslik joriy etilgani tahsinga loyiqdir. Yuqorida ta`qidlaganimiz kabi al-Hakim at-Termizining yoshligidan ilm-u tarbiyani oiladan olganligi ilmlari mustahkamlash uchun olimlardan ilm olganligini va mustaqil izlanganligini ko`rib al-Hakim at-Termiziy hayotida bo`lgan imga chanqoqligi singari hozirgi yoshlarda butun dunyo mutaffiakirlarini ijodi o`rganib yangi natijalarga erishish maqsadga muvafiq bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlarining o`qituvchi-o`quvchi munosabatlariga bergan ta`limotlari maktabda oliy ta`limda yaxshi ma`naviy-psixologik iqlimni yaratishda, yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson bo`lib yetishishida bebaho manba bo`la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАР ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ДИАГНОСТИКАСИ. *Science and innovation*, 1(В3), 129-133.

2. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОР ХУСУСИЯТЛАРИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИДА ДИНИЙ БИЛИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(6), 286-294.

3. Холмуротова, Ш. М. (2021). ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *European science*, (3 (59)), 60-63.

4. Холмуротова, Ш. М., & Алмардонова, Г. Т. Қ. (2022). ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(11), 375-383.

5. Xolmurotova, S., & Adilova, S. (2022). ERIK BERNNING TRANZAKSION TAHLILIDAN TUZILMAVIY TAXLIL. *Science and innovation*, 1(В8), 391-393.





6. Холмуротова, Ш. М. (2023). МУҚАДДАС МАНБАЛАРДА АЁЛ ЎРНИНИНГ ПСИХОЛИГИК ШАРҲИ. ТА`ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 85-88.

7. Holmurotova, S., & Adilova, S. (2023). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA RATSIONAL-EMOTIV PSIXOTERAPIYANING SAMARADORLIGI. Interpretation and Researches, 2(3). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/16>

8. Orifjonovna, A. D. (2022). Psychological Factors of the Use of Coaching Technology in the Formation of Spiritual Emotional Intelligence in Students. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(3), 215-218.

9. Aminova, D. O. (2021). THE EFFECT OF SOCIAL PROCESSES ON HUMAN CONSCIOUSNESS. Экономика и социум, (1-1 (80)), 30-32.

10. То`рахонова, М. (2023). ВО `LAJAK O `QITUVCHILARNING KASBIY O `ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.

11. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.

12. Бозорова, М., & Турахонова, М. (2021). РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энигма, (32), 82-86.

13. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.

14. Qobilbek Shokirovich Xushboqov (2022). O`ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (5), 385-391.

15. Djoraevich, E. B., Shokirovich, K. K., Shodieva, K. K., & Gayratovna, Y. G. A Commentary on a Poem. International Journal on Integrated Education, 4(3), 122-125.

16. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.





17. Xushboqov, Q. S. (2022). O `ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 385-391.

18. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA`NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA`LIMOTLARI . *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 340–351. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/665>

19. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Saparova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUUF FITRATNING “OILA” ASARIDAGI MA`NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>

20. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O`QUVCHILARIDA MA`NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>


21. Абдуразаков, Ф. (2022). У^ УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У^ УВЧИЛАРНИНГ НОТЦЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

22. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich. (2023). OLIY TA`LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 16–23. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396>

23. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7062-7068.

24. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). FORMATION OF EDUCATIONAL CONCEPTS RELATED TO ENTREPRENEURSHIP AND SAVING IN THE LABOR PROCESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 152-156.

25. Jumaevich, K. K., Ergashovich, P. A., & Ismailovich, A. A. (2021). Development of Young Generation In The Spirit of National Ideas in The Process of



Spiritual and Moral Education. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2173-2188.

[26.](#) Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Family Cooperation Technology in the Formation of the Concepts of Entrepreneurship and Savings in Primary School Students. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 7069-7076.

[27.](#) Д. М. Бобоқулова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕЖАМКОРЛИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 204-207.

[28.](#) Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Problems of entrepreneurship, economy and economic education in the pedagogical heritage of eastern Thinkers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 565-572.

